

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK: 658.01:633.1(575.1)

**Azimova Xurshida Mirsamadovna**

**KORXONALARНИ BOSHQARISHDA XARAJATLAR BO'YICHA  
ETAKCHILIK STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

(Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari misolida)

**08.00.13 – «Menejment»**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d., prof. T.A. Akramov**

**TOSHKENT – 2024**

## MUNDARIJA

|                 |   |                             |
|-----------------|---|-----------------------------|
|                 | <b>KIRISH .....</b>   | <b>3</b>                    |
| <b>I-BOB.</b>   | <b>RAQOBAT SHAROITIDA XARAJATLARNI PASAYTIRISHDA STAREGIYASINI ISHLAB CHIQISHNI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....</b>            | <b>KORXONADA ETAKCHILIK</b> |
| 1.1.            | Raqobat muhitini shakllantirishda korxonada xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qo'llashning nazariy asoslari ..... | 12                          |
| 1.2.            | Korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning iqtisodiy ahamiyati .....   | 22                          |
| 1.3.            | G'alla etishtirishni tashkil etishda qiymatlar zanjiri va xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar .....                           | 38                          |
|                 | <b>Birinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>   | <b>50</b>                   |
| <b>II-BOB.</b>  | <b>FERMER XO'JALIKLARIDA G'ALLA ETISHTIRISHNI TASHKIL ETISH VA ULARNING XARAJATLARI TAHLILI .....</b>                         | <b>52</b>                   |
| 2.1.            | Respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining rivojlanish tendensiyalari .....  | 52                          |
| 2.2.            | Fermer xo'jaliklarida g'alla etishtirishni tashkil etish xarajatlari holati tahlili .....                                     | 59                          |
| 2.3.            | Fermer xo'jaliklarida g'alla etishtirish xarajatlarini pasaytirish omillari tahlili .....                                     | 67                          |
|                 | <b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>   | <b>76</b>                   |
| <b>III-BOB.</b> | <b>FERMER XO'JALIKLARIDA G'ALLA ETISHTIRISH XARAJATLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....</b>               | <b>78</b>                   |
| 3.1.            | Fermer xo'jaliklarida g'alla etishtirishni samarali tashkil etish yo'llari.....   | 78                          |
| 3.2.            | Fermer xo'jaliklarida xarajatlarni boshqarishda etakchilik strategiyasidan foydalanish modellari .....                        | 90                          |
| 3.3.            | Fermer xo'jaligi rahbari etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlarining bug'doy hosildorligiga ta'siri .....                | 99                          |
|                 | <b>Uchinchi bob bo'yicha xulosa .....</b>   | <b>111</b>                  |
|                 | <b>XULOSA .....</b>   | <b>113</b>                  |
|                 | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>   | <b>116</b>                  |
|                 | <b>ILOVA .....</b>  | <b>123</b>                  |

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti globallashib borgan sari muttasil o'sib borayotgan dunyo aholisining oziq-ovqat va xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, sanoatda resurs tejamkorligini oshirish ahamiyati ham ortib boradi. Tabiiy resurslar cheklangani sari mamlakatlar va korxonalar o'rtasida raqobat kuchayadi, bunday hollarda esa raqobat strategiyalarini ishlab chiqishga zarurat oshadi. Jahon bozorida bug'doyga talab muntazam ravishda jadallik bilan o'sib, g'alla dunyo ekin maydonlarining 14 foizni egalladi. «Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining keskinlashuvi BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2024 yil don mahsulotlari etishtirish hajmini 2 854 million tonna, 2023 yilga nisbatan 0,013 foizga (35 million tonna) o'sishini, shundan bug'doy yetishtirish 789,0 million tonnani, 2023 yilga nisbatan 0,005 foizga (4 million tonna) o'sishini prognoz qilgan». <sup>1</sup>

Bugungi kunda jahonda raqobatning kuchayib borishi sharoitida korxonalarini boshqarishda xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar faol tarzda olib borilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasi jihatlari, jumladan, mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi to'g'ri va egri xarajatlar, ishchi-xodimlarni rag'batlantirish tizimi, shaffoflik va barqarorlikni oshirishning innovatsion yondashuvlari, korxonalar boshqaruv mexanizmlari tashkiliy-uslubiy asoslarini hamda xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasini yanada takomillashtirish, korxonalarni uzoq muddatli barqarorligi va muvaffaqiyatini ta'minlovchi qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga doir tadqiqotlar miqyosi so'nggi yillarda kengaytirilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini xalqaro bozorlarga uyg'unlashtirish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy

---

<sup>1</sup> <https://gantbpm.ru/realizatsiya-strategii-liderstva-po-zatratam/>

iqtisodiyotimizni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ochiqligi dunyo bozoriga kirib borishida mamlakatimizdagi mavjud korxonalar mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llarini izlashi zamon talabidir. Xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasini qo‘llanishi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, boshqaruvni yanada takomillashtirish mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-fevraldaggi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli «Qishloq xo‘jaligida er va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-sonli «2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarini 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 6-martdaggi PQ-4634-sonli «G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021-yil 15-noyabr PQ-10-sonli «G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida»gi, 2023-yil 23-fevraldaggi PQ-69-sonli «Qishloq xo‘jaligida aholi bandligini oshirish va yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-maydagi 312-sonli «G‘alla yetishtiruvchi xo‘jaliklar va korxonalardan sotib olinadigan donni saqlash sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-

axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Korxonalarni boshqarishda xarajatlar yetakchiligi strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari I.Ansoff, A.Marshall, F.Hayek, M.Porter, Y.A. Shumpeter kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalarida o‘z ifodasini topgan.<sup>2</sup>

MDH mamlakatlari xo‘jalik subyektlarida, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan yoki yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish borasidagi muammolar Shibanova A.A., Jdanov S.A., Myasnikova O.Yu., Rada A.O., Sunteev A.N., Savitskaya J.S., Rasumov V. SH., Sheyxova M.A., Gasanguseynov M., Mishina E.S., Sheremet A.D., Idina A.V., Mishina E.S. Kunsman M.V., Sokolov N.A., Kubishkin A.V., Sinsadze O.E., Goncharov N.P., Balabanov A.A., Shirokov Y.U., Tixnenko V.V., Artyushenko V.A., Labzunov P.P., Lebedev V.G., Drozdova T.T., Kustarev V.P., Tanasheva O.G., Ryabova T.S., Permali D.M.<sup>3</sup> kabi iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Ансофф И. Стратегический менеджмент. Классическое издание. / пер. с англ. под. ред Петрова А.Н. – СПб.: Питер, 2009. 11 с.: ил. – (Серия «Теория менеджмента»); Маршалл А. Принципы экономической науки. Т.1 – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. С 260.; Хайек Ф. Конкуренция как процедура открытия // Мировая экономика и международные отношения. 1989. – № 12. – С. 6.; Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. Пер. С англ. И.Минервин. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. 73 с.; Шумпетер Й.А. Капитализм, социализм, демократия: пер. С англ. Предисл. И общ. Ред. В.С.Автономова. – М.: Экономика, 1995. С 128.

<sup>3</sup> Шибанова Анна Анатольевна. Обеспечение экономической безопасности государственных закупок РФ. Санкт-Петербургский государственный экономический университет. 2020. Жданов Сергей Александрович. Рынок зерна России: состояние, особенности, тенденции развитии. Автореферат докторской диссертации. Мичуринский государственный аграрный университет. 2020. Мясникова Ольга Юрьевна. Развитие инструментов бережливого производства энергетических предприятий генерации тепловой и энергетической энергии. Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова, г. Саратов. 2020., Рада Артём Олегович. Организационно-экономический механизм внедрения цифровых технологий на предприятиях сельского хозяйства. Кемеровский государственный университет 2020., Сунтеев Антон Николаевич. Управление внутренними резервами снижения себестоимости продукции машиностроительных предприятий. Национальный исследовательский Мордовский государственный университет им. Н.П.Огарёва. 2020., Савицкая Жанна Сергеевна Обеспечение продовольственной безопасности региона. Санкт-Петербургский государственный экономический университет 2020., Расумов Валид Шаманович. Совершенствование организационно - экономического механизма управления инновационным развитием сельского хозяйства региона. Волгоградский государственный университет. 2019.; Юданов А.Ю. Конкуренция: теория и практика: учебное-практическое пособие. – 2-е изд., исп. И доп. – М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем», изд-во «ГНОМ-ПРЕСС», 1998. С 316. Шейхова М.А., Гасангусейнов М. Факторы снижения себестоимости зерновых культур. <https://cyberleninka.ru/article/n/faktory-snizheniya-sebestoimosti-zernovyh-kultur>; Мишина Е.С. Анализ

O‘zbekistonda iqtisodiyotining real sektorida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mahsulot yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik subyektlari faoliyatini boshqarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot narxlarini davlat tomonidan tartibga solish, bozorda raqobat muhitini shakllantirish va xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasidan foydalanish mexanizmlarini shakllantirish borasidagi ilmiy jihatlari Yo‘ldoshev N.Q., Zaxidov G.E., Ortiqov A., Djurabaev O.D., Yaxyaeva I.K., Toshnazarova D.S.<sup>4</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimiz raqobat muhitini shakllantirishda xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qo‘llash, ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning iqtisodiy ahamiyatini aynan, g‘alla yetishtirishni tashkil etishda qiymatlar zanjiri va xarajatlarga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liqligi, fermer xo‘jaliklarida g‘alla yetishtirish xarajatlarini pasaytirish, g‘alla yetishtirishni samarali tashkil etish,

---

конкурентной стратегии М.Портера – абсолютное лидерство в издержках./ Е.С. Мишина, Н.А. Рой. – Тест: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. № 23 (127). С. 260-262. Шеремет А.Д. Управленческий учет: Учебное пособие/Под ред. – 2-е изд., испр. – М.: ИДФБК-ПРЕСС, 2002. – 312 с.; Идыина, А.В. Управленческий учет: учеб. пособие / А. В. Идыина, Н. Н. Ильшева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с. Кунцман М.В. Экономическая теория. Курс лекций. – Московский автомобильно-дорожный институт (МАДИ), 2015 г. 69 с. Соколов Н.А., Кубышкин А.В. Экономическая теория: учебное пособие. – Брянск: Изд-во Брянский ГАУ, 2015 г. 124 с. Цинцадзе О.Е. Совершенствование элементов технологии возделывания сортов яровой мягкой пшеницы в степной зоне Южного Урала. Автореф. дис. канд. сельскохозяйственных наук. Оренбург 2014. Гончаров Н.П. Сравнительная генетика пшениц и их сородичей. 2-е изд. Новосиб., 2012. Балабанов А.А. Эффективность ресурсосберегающих методов предпосевной обработки почвы, посева и борьбы с сорняками при возделывании яровой пшеницы в степной зоне Оренбургского Предуралья: автореф. дис. Канд. техн. наук. сельскохозяйственные науки – Оренбург, 2006. (на русском языке). Широков Ю., Тихненко В.В. Анализ экологических проблем растениеводства и путей их решения. Сборник: Веб-конференция ЕЗС. 14. Ростов-на-Дону, 2021 г. Комплексный экономический анализ предприятия / Под ред. Н.В. Войтоловского, А.П. Калининой, И.И. Мазуровой. - СПб, 2010. – 38-45. Артющенко В.А. Развитие и современное состояние систем учета затрат // Экономический анализ: теория и практика. - 2007. - №22. - С. 29-35, с.35-50. Лабзунов П.П. Принципы управления затратами на промышленных предприятиях России // Нефтепереработка и нефтехимия. - 2008. - №2. - С. 7-11.; В.Г. Лебедев, Т.Т. Дроздова, В.П. Кустарев и др. Управление затратами на предприятии - СПб. Издательский дом «Бизнес - пресса». 2000. Танашева О.Г., Рябова Т.С. Контроль и анализ в системе управления затратами. Экономический анализ: теория и практика, 2004. №8. С. 39-42. Пермали Д.М. и др., Структура затрат и производительность: методологические аспекты.

<sup>4</sup> Захидов Гафурджан Эркинович. Ўзбекистон енгил саноатида ишлаб чиқаришни кластер усулида ташкил этиш ва бошқариш самарадорлиги. Тошкент давлат иқтисодиёти университети. 2017. Джурабаев Отабек Джурабаевич. Организационно-экономические механизмы управления пчелаводческими хозяйствами. Тошкент давлат иқтисодиёти университети. 2020. Яхъяева Инобат Каримовна. Тўқимачилик корхоналарида тежамкор ишлаб чиқаришни бошқаришни такомиллаштириш. Тошкент давлат иқтисодиёти университети. 2022. Yo‘ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. - Т.: «IQTISODIYOT», 2022. - 132 б. Н.Қ. Йўлдошев. Давлат ва бозор иқтисодиёти: бир қўй билан чапак чалиб бўлмайди. Халқ сўзи, 2020 йил 25 декабрь. А.Ортиков. Саноат иқтисодиёти. Дарслик. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси. Адабиёт жамғармаси нашриёти. Т.: ТДИУ, 2009, 280-бет. Тошназарова Д.С. “Харажатлар ва таннарх тушунчаси, уларнинг мазмуни ва тавсифи”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. №3, may-iyun, 2021-yil. 35-б.

xarajatlarni boshqarishda yetakchilik strategiyasidan foydalanish modellarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo‘nalishlarini takomillashtirish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalarni boshqarishda xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish va O‘zbekistonda g‘allachilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** quyidagilardan iborat:

raqobat muhitini shakllantirishda xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qo‘llashning nazariy-uslubiy jihatlarini o‘rganish;

korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning iqtisodiy ahamiyatini tadqiq qilish;

fermer xo‘jaliklarida g‘alla yetishtirishni tashkil etishda qiymatlar zanjiri va xarajatlarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

respublikamizdagи fermer xo‘jaliklarining rivojlanish holatiga ta’sir etuvchi muammolarni aniqlash va ular bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

g‘alla etishtirish xarajatlarini pasaytirish yo‘llarini aniqlash, mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda xarajatlarni optimallashtirish;

g‘alla yetishtirishni samarali tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatib berish, an’anaviy quvvat manbalarini yashil energetika manbalariga almashtirish orqali rentabellik darajasini oshirish;

fermer xo‘jaliklarida xarajatlarni boshqarishda yetakchilik strategiyasidan foydalanish modellarini ishlab chiqish;

fermer xo‘jaligi rahbari yetakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlarining bug‘doy hosildorligiga tasirini aniqlash;

bug‘doy yetishtirishda xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha yetakchilik strategiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyati g‘allachilik fermer xo‘jaliklari faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** g‘allachilik fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirishga doir tashkiliy, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli yondashuv, ilmiy mushohada, operatsiyalarni tadqiq etish, iqtisodiy statistik, korrelyatsion-regression, iqtisodiy matematik, boshqaruv masalalarini yechish, statistik tanlanma, guruhash, qiyoslash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda xarajatlarni optimallashtirish, an’anaviy quvvat manbalarini yashil energetika manbalariga almashtirish orqali rentabellik darajasini oshirish asosida tarmoqqa xos integratsiyalashgan qiymat zanjiri takomillashtirilgan;

sanoat mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va neft mahsulotlarini erkin narxda realizatsiya qilinishi, nafaqat sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki g‘alla etishtirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni bozor mexanizmiga o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi asoslangan;

menejer faoliyati samaradorligini baholash algoritmi korxona rahbarlarining yetakchilik salohiyati mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarishda resurslardan, jumladan kimyoviy vositalardan optimal foydalanish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda g‘alla yetishtirish hajmi ko‘p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatgichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

g‘allachilikda ishlab chiqarish xarajatlariini kamaytirish va fermer xo‘jaliklaridan bug‘doyni sotib olishning bozor tamoyillarini belgilash bo‘yicha

takliflar ishlab chiqilgan;

bug‘doy ekiladigan yerdan hosildorlikni ko‘paytirish bo‘yicha yerga solinadigan o‘g‘itlar miqdori belgilash bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berilgan;

bug‘doy yetishtirishda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha, yoqilg‘i va elektr quvvati sarfini kamaytirish imkoniyatlari aniqlangan;

g‘allakor fermer xo‘jaliklari rentabelligiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlangan;

fermer xo‘jaliklari rahbarlarining yetakchilik salohiyatini baholash orqali, samaradorlikni oshirish yo‘llari belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo‘llangan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlillar hamda statistik ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomaning anketa va ekspert so‘rov shakllariga asoslanganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif hamda tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar g‘allachilik fermer xo‘jaliklarini boshqarishda raqobat muhitini shakllantirishdagи xarajatlarni minimallashtirish, g‘alla yetishtirishni tashkil etishda qiymatlar zanjirini shakllantirish, fermer xo‘jaliklarida g‘alla yetishtirishni tashkil etishda yoqilg‘i va energiya xarajatlarini pasaytirish, fermer xo‘jaliklarini boshqarishda xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasidan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirgili g‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, g‘alla yetishtirish xarajatlarini kamaytirishda, sohada qisqa va uzoq muddatli g‘alla yetishtirish ishlarini tashkil etishda, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida “Qishloq xo‘jaligi menejmenti”, “Tarmoq iqtisodiyoti” kabi fanlardan o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Korxonalarni boshqarishda xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda xarajatlarni optimallashtirish, an’anaviy quvvat manbalarini yashil energetika manbalariga almashtirish orqali rentabellik darajasini oshirish asosida tarmoqqa xos integratsiyalashgan qiymat zanjirini takomillashtirish bo‘yicha taklif Toshkent tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga joriy etilgan (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-fevradagi 01/02-0145-son ma’lumotnomasi). Natijada, bug‘doy yetishtirishda mahsulot tannarxi tarkibidagi mahalliy o‘g‘it bahosini pasaytirish hisobiga hosildorlik 52 sentner bo‘lgan 14 ta fermer xo‘jaligida mahalliy o‘g‘it xarajatlarini 48 million so‘mga qisqartirish imkonini berdi. Tepalik maydonlarda g‘alla yetishtiruvchi “Amirxon Agro biznes” fermer xo‘jaligida artezian quduqdan suv chiqarish uchun VACKSON portativ elektron nasoslari ishlatilishi natijasida rentabellik 18,05 foizga oshgan;

sanoat mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va neft mahsulotlarini erkin narxda realizatsiya qilinishi, nafaqat sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki g‘alla yetishtirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni bozor mexanizmiga o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha asoslangan taklifi Toshkent tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga joriy etilgan (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-fevradagi 01/02-0145-son ma’lumotnomasi). Natijada, Toshkent tumanidagi “Sunnat Abdukarim”, “Amirxon Agro biznes” va “Karomat Muruvvat Fayz” fermer xo‘jaliklari tomonidan amaliyotga joriy etilgan ushbu taklifdan hosildorlik 52 sentnerni tashkil etib, rentabellik ko‘rsatkichi 8 foizga oshishiga erishilgan;

menejer faoliyati samaradorligini baholash algoritmi korxona rahbarlarining yetakchilik salohiyati va mehnat unumdarligini oshirish hamda mahsulot ishlab chiqarishda resurslardan, jumladan kimyoviy vositalardan optimal foydalanish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish asosida takomillashtirilgan taklif Toshkent tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga

joriy etilgan (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-fevradagi 01/02-0145-sonli ma'lumotnomasi), (Toshkent tumani fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 3-martdagi 04/06-2579-son ma'lumotnomasi). Natijada, bug'doy tannarxiga fermer xo'jaligi rahbarining yetakchilik salohiyati bevosita ta'sir etishi natijasida 2023 yilda yetakchilik salohiyati yuqori bo'lgan 22 ta fermer xo'jaligida xarajatlar boshqa fermer xo'jaliklariga nisbatan 18-22 foizga past bo'lganligi aniqlangan. Rahbarlarining yetakchilik salohiyati yuqori bo'lgan fermer xo'jaliklarida bug'doy tannarxi tarkibidagi mahalliy o'g'it bahosini pasaytirish hisobiga hosildorlik 52 sentner bo'lgan 14 ta fermer xo'jaligida mahalliy o'g'it xarajatlarini 48 million so'mga qisqartirish imkonini berdi;

O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda g'alla yetishtirish hajmi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2030 yilga qadar o'rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatgichlari Toshkent tumani fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga joriy etilgan (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-fevradagi 01/02-0145-son ma'lumotnomasi). 2023 yil natijasiga ko'ra, Toshkent tumanidagi yetakchilik salohiyati yuqori bo'lgan 52 ta fermer xo'jaligida xarajatlar ko'rsatkichlari boshqa fermer xo'jaliklariga nisbatan 18-22 foizga past bo'lganligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta (shu jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 7 ta ilmiy ish, shu jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda 2 ta maqola, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola, shuningdek, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 2 ta va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 2 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

**Tadqiqot ishining tuzilishi.** Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning matni 145 betni tashkil qiladi.

